


## 2020-yil yanvar-iyun oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **2 471,5 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi.




### 2020-yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda.



2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 3302 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 395 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **11,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **70,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **36,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringning **13,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,3 %**) o'sishidir.




**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda).**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2019- yil	01.07.2020- yil	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2905</b>	<b>3302</b>	<b>113,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	784	866	110,5
<b>Shahrisabz</b>	119	133	111,8
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	128	145	113,3
<b>Dehqonobod</b>	124	145	116,9
<b>Qamashi</b>	168	179	106,5
<b>Qarshi</b>	328	370	112,8
<b>Koson</b>	242	271	112,0
<b>Kitob</b>	119	132	110,9
<b>Mirishkor</b>	69	81	117,4
<b>Muborak</b>	175	193	110,3
<b>Nishon</b>	117	138	117,9
<b>Kasbi</b>	123	151	122,8
<b>Chiroqchi</b>	160	194	121,3
<b>Shahrisabz</b>	104	120	115,4
<b>Yakkabog'</b>	145	184	126,9



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni  
01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)**




**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (26,2 %), Qarshi tumani (11,2 %) va Koson (8,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **322,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **77,4 %** ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,0 %** punktga kamayib, **13,0 %** ni tashkil etdi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,2 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **90,4 %**), G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,1** martaga oshdi), va Koson tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,3 %** i, yoki o'taan vilnina mos davridaa nisbatan **36.8 %** ) da to'a'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da.



**Kichik korxona va mikrofirmalar**

- 2019-yil yanvar-iyun
- 2020-yil yanvar-iyun


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,7** % i to‘g‘ri kelib, 2019-yilning yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **4,0** % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **107,7** % ni tashkil etgan holda **1573,9** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,3** % ni tashkil etib, **575,5** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **98,1** % ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **133,8** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **86,6 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2337,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **75,3 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020 - yil yanvar- iyun

Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020-yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2471,5</b>	<b>100,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlari:</i>			
<b>Qarshi</b>	<b>598,4</b>	<b>103,4</b>	<b>24,2</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>130,4</b>	<b>100,7</b>	<b>5,3</b>
<i>tumanlari:</i>			
<b>G’uzor</b>	<b>300,7</b>	<b>104,6</b>	<b>12,2</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>58,7</b>	<b>100,7</b>	<b>2,4</b>
<b>Qamashi</b>	<b>76,1</b>	<b>96,3</b>	<b>3,1</b>
<b>Qarshi</b>	<b>234,8</b>	<b>100,4</b>	<b>9,5</b>
<b>Koson</b>	<b>219,4</b>	<b>90,8</b>	<b>8,9</b>
<b>Kitob</b>	<b>173,3</b>	<b>103,1</b>	<b>7,0</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>59,6</b>	<b>98,7</b>	<b>2,4</b>
<b>Muborak</b>	<b>105,4</b>	<b>99,0</b>	<b>4,3</b>
<b>Nishon</b>	<b>98,3</b>	<b>101,1</b>	<b>4,0</b>
<b>Kasbi</b>	<b>67,5</b>	<b>100,1</b>	<b>2,7</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>183,6</b>	<b>100,4</b>	<b>7,4</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>64,2</b>	<b>102,3</b>	<b>2,6</b>
<b>Yakkabog’</b>	<b>101,1</b>	<b>92,1</b>	<b>4,0</b>

\* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020-yil yanvar-iyun



62,5 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **62,5** % i yoki **1543,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



10,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **156,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,1** % ni tashkil etdi.



55,8 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **861,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,8** % ni tashkil etdi.



34,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **525,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,1** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020-yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2471,5</b>	<b>100,3</b>	<b>1543,4</b>
<i>shaharlari:</i>			
<b>Qarshi</b>	<b>598,4</b>	<b>103,4</b>	<b>373,9</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>130,3</b>	<b>100,7</b>	<b>81,4</b>
<i>tumanlari:</i>			
<b>G'uzor</b>	<b>300,7</b>	<b>104,6</b>	<b>187,8</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>58,7</b>	<b>100,7</b>	<b>36,6</b>
<b>Qamashi</b>	<b>76,1</b>	<b>96,3</b>	<b>47,5</b>
<b>Qarshi</b>	<b>234,8</b>	<b>100,4</b>	<b>146,7</b>
<b>Koson</b>	<b>219,4</b>	<b>90,8</b>	<b>137</b>
<b>Kitob</b>	<b>173,3</b>	<b>103,1</b>	<b>108,2</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>59,6</b>	<b>98,7</b>	<b>37,2</b>
<b>Muborak</b>	<b>105,4</b>	<b>99,0</b>	<b>65,8</b>
<b>Nishon</b>	<b>98,3</b>	<b>101,1</b>	<b>61,4</b>
<b>Kasbi</b>	<b>67,5</b>	<b>100,1</b>	<b>42,1</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>183,6</b>	<b>100,4</b>	<b>114,6</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>64,2</b>	<b>102,3</b>	<b>40,1</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>101,1</b>	<b>92,1</b>	<b>63,1</b>

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da.

**30,3**



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari


**2019-yil yanvar-iyun**

**13,5**



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

**56,2**



Binolar va inshootlarni  
qurish

**14,1**



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**12,3**



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

**73,6**



Binolar va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020-yil yanvar-iyun oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Qarshi sh.

598,4

1

2

G'uzor  
300,7

Qarshi  
234,8

3



### Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Shahrisabz

64,2



1

2

Mirishkor  
59,6

Dehqonobod

58,7

3

